

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2025-yil 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 37 801 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,5 foizga o'sgan.

2025-yil yanvar-mart oylarida 1 172 ta kichik korxon va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 119,5 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxon va mikrofirmalar savdo (36,8 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (25,2 foiz), sanoat (7,1 foiz), yashash va ovqatlanish (7,8 foiz) va qurilish (5,0 foiz) boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

### 2025-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-mart 2024-yil</i>	<i>yanvar-mart 2025-yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>981</b>	<b>1 172</b>
Buxoro sh.	229	305
Kogon sh.	30	35
<i>tumanlar</i>		
Olot	59	51
Buxoro	83	75
Vobkent	87	54
G'ijduvon	99	100
Kogon	46	71
Qorako'l	45	80
Qorovulbozor	26	50
Peshku	48	57
Romitan	109	179
Jondor	65	59
Shofirkon	55	56

2025-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (305 ta), G'ijduvon (100 ta), hamda Romitan (179 ta), Buxoro (75 ta), Jondor (59 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (50 ta) tumanida tashkil etilgan.

**2025-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2025-yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 26,0 foiz, Qorako'l tumani 6,8 foiz, Romitan tumani 15,3 foiz, Kogon tumani 6,1 foiz, Jondor tumani 5,0 foiz, G'ijduvon tumani 8,5 foiz, Vobkent tumani 4,6 foiz, Kogon shahri 3,0 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 4,3 foizni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**


	<i>yanvar-mart 2024-yil</i>	<i>yanvar- mart 2025-yil</i>
<b>Jami</b>	<b>981</b>	<b>1 172</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	91	296
Sanoat	201	83
Qurilish	60	59
Savdo	296	431
Tashish va saqlash	90	78
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	76	90
Axborot va aloqa	25	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	27	21
Boshqa turdagi xizmatlar	115	94

**Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2025-yil 1-aprel holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 25,3 birlikda, Buxoro shahrida 20,9 birlikda, Kogon tumanida 15,4 birlikda, Romitan tumanida 14,2 birlikda, Buxoro tumanida 9,7 birlikda va Peshku tumanida 9,4 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 9,5 – 7,1 birlik oralig'ida Jondor, Vobkent, Olot va Shofirkon tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 6,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**2025-yil 1-aprel holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,9 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yanvar-mart oylarida bu ko'rsatkich 11,2 birlikka etdi va 2024-yilning shu davriga nisbatan 1,7 birlik past.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda;)



**2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:**

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3 502,2 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 34,8 foizi) yoki 2024-yil yanvar-martga nisbatan fizik hajm indeksi 124,4 foizni tashkil qildi;

- 4 781,8 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,3 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 97,8 foizi) tashkil qildi;

- 4 446,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 50,4 foizi) o'zlashtirildi va 2024 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 56,6 foizini tashkil qildi;

- 2 781,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 86,5 foizi) bajarildi va 2024 yil yanvar- martga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 106,1 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 75,8 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,1 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,1 foizi) tashkil qildi;

- 5 819,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 66,8 foizi) 2024 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 foizini tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 89,5 foizi yoki 4 324,4 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 107,2 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.


- 37,6 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 48,4 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan

4,2 mln.AQSH dollarga yoki 12,7 foizga oshdi, mos ravishda 116,7 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 44,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,1 mln.AQSH dollariga kamaydi.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2025- yil</i>	<i>(+-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<i>birlik</i>	<b>26 475</b>	<b>23 382</b>	<b>-3 093</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<i>birlik</i>	<b>981</b>	<b>1 172</b>	<b>191</b>
YAHM	<i>foiz</i>	63,8	63,3	-0,5
Sanoat	<i>foiz</i>	30,5	34,8	4,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<i>foiz</i>	98,0	97,8	-0,2
Investitsiya	<i>foiz</i>	72,6	50,4	-22,2
Qurilish	<i>foiz</i>	85,6	86,5	0,9
Savdo	<i>foiz</i>	89,0	89,5	0,5
Xizmatlar	<i>foiz</i>	66,6	66,8	0,2
Yuk tashish	<i>foiz</i>	91,1	91,3	0,2
Yuk aylanmasi	<i>foiz</i>	74,2	75,8	1,6
Yo'lovchi tashish	<i>foiz</i>	97,1	97,2	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	<i>foiz</i>	98,0	98,1	0,1
Ekspart	<i>foiz</i>	51,0	48,4	-2,6
Import	<i>foiz</i>	52,0	44,9	-7,1

**2025-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi, foizda**




**2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,  
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning  
(fuqarolar mulki) ulushi**

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 781,8	100,0
Sanoat	3 502,2	44,8
Qurilish	2 781,7	52,4
Chakana savdo	2 919,0	60,5

**Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi**  
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (464,5 mlrd.so'm), Kogon tumani (380,3 mlrd.so'm), G'ijduvon tumani (317,1 mlrd.so'm) va Jondor tumani (240,0 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Qorako'l (99,9 mlrd.so'm) va Buxoro tumanlarida (94,9 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2025-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Jondor (83,0 foiz), Shofirkon (77,6 foiz), Kogon (74,6 foiz), Vobkent (65,5 foiz), Olot (53,0 foiz) va Buxoro shahri (45,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (31,3 foiz) va Qorovulbozor (3,4 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2025-yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foizda**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (606,8 mlrd.so'm), Buxoro (577,1 mlrd.so'm), Shofirkon (492,6 mlrd.so'm), Romitan (486,5 mlrd.so'm) va Qorako'l (426,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (14,9 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (90,3 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (124,7 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2025-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1 381,5 mlrd.so'm), G'ijduvon (671,2 mlrd.so'm), Romitan (277,4 mlrd.so'm) va Qorako'l (325,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumani (81,3 mlrd.so'm), Olot (104,8 mlrd.so'm), Peshku (117,5 mlrd.so'm) va Kogon (181,4 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2025 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (973,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (606,3 mlrd.so'm), Jondor (269,4 mlrd.so'm), Peshku (244,6 mlrd.so'm), Buxoro (240,5 mlrd.so'm) va Romitan (233,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**



**2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda**

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
<b>Buxoro viloyati</b>	34,8	97,8	50,4	86,5	89,5	66,8
Buxoro sh.	45,9	97,6	37,8	84,5	80,1	42,7
Kogon sh.	44,0	97,6	91,6	75,4	96,0	72,1
tumanlar						
Olot	53,0	99,4	97,2	94,3	97,8	85,2
Buxoro	37,1	98,5	39,8	98,9	99,3	78,0

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Vobkent	65,5	98,9	83,6	94,3	99,1	35,6
G‘ijduvon	33,2	98,9	81,7	90,0	97,6	83,0
Kogon	74,6	95,7	83,4	84,1	87,2	75,7
Qorako‘l	42,5	99,2	14,4	84,4	99,0	77,7
Qorovulbozor	3,4	79,6	16,9	22,1	99,5	50,3
Peshku	40,9	98,8	49,0	98,0	76,4	74,4
Romitan	31,3	97,8	15,8	67,3	99,4	72,7
Jondor	83,0	97,6	73,9	94,2	99,0	79,6
Shofirkon	77,6	99,5	89,6	90,2	99,1	78,1

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Jondor (83,0 foiz), Shofirkon (77,6 foiz), Kogon (74,6 foiz), Vobkent (65,5 foiz) va Olot tumanlarida (53,0 foiz) tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Olot (97,2 foiz), Kogon shahri (91,6 foiz), Shofirkon (89,6 foiz), Vobkent (83,6 foiz) va Kogon (83,4 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Buxoro (98,9 foiz), Peshku (98,0 foiz), Vobkent (94,3 foiz), Olot (94,3 foiz), Jondor (94,2 foiz) va Shofirkon tumanlari (90,2 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Qorovulbozor (99,5 foiz), Romitan (99,4 foiz), Vobkent (99,1 foiz), Buxoro (99,3 foiz), va Shofirkon (99,1 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (85,2 foiz), G‘ijduvon (83,0 foiz) va Jondor (79,6 foiz) tumanlari tashkil etadi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2025-yil I-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1 285 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 20,8 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 73,5 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 29,9 foiz va 62,5 foiz, xizmatlar sohasida 27,4 foiz va 66,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 23,7 foiz va 73,7 foiz, sanoatda 30,3 foiz va 61,2 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 8,5 foiz, qurilishda 5,7 foiz, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 2,6 foiz, xizmatlarda 6,1 foiz va savdoda 7,6 foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash**  
2025-yil I -chorak uchun, foizda



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yaxshilanish 35,6 foiz, oʻzgarishsiz 62,7 foiz, yomonlashish 1,7 foiz, sanoat korxonalarida yaxshilanishi 46,1 foiz, oʻzgarishsiz 50,9 foiz, yomonlashish 3,0 foiz, savdo yaxshilanish 45,8 foiz, oʻzgarishsiz 49,8 foiz, yomonlashish 4,4 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 45,2 foiz, oʻzgarishsiz 53,2 foiz, yomonlashish 1,6 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 39,6 foiz oʻzgarishsiz 57,5 foiz, yomonlashish 2,8 foiz kuzatildi.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar  
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari (tadbirkorlik sub`ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik** – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub`ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Korxonaning faoliyatini tahlil qilish** – uning asosida korxonaning faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonaning faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

**Chakana savdo** – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Tovarlarni realizatsiya qilish** – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

**Reklama** – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

**Tavakkalchilik** – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

**Bozor** – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.